

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

Qo'l yozma huquqida

UDK 618.01.03

MAMADALIYEV XAYITALI JALOLIDDIN O'G'LI

**« CHIGIT EKISH MASHINASINING PLYONKA YOTQIZISH
MOSLAMASINING KONSTRUKSIYASINI VA UNI TAYYORLASH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH »**

5A320201 “Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari”

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar:
t.f.n., Q.M. Ermatov**

ANDIJON-2019

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

Bo'lim: *Magistratura*

Magistratura talabasi: *Mamadaliyev Xayitali
Jaloliddin o'g'li*

Kafedra: *“Mashinasozlik
texnologiyasi”*

Ilmiy rahbar: *t.f.n., Q.M. Ermatov*

O'quv yili: *2017-2019*

Mutahassislik: *5A320201 “Mashinasozlik
texnologiyasi va jihozlari”*

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi vaqtda paxta ekish uchun mo'ljallangan dalalar qisqartirilgani tufayli paxta hosildorligini oshirish, tola sifatini ko'tarish, dolzarb bo'lib qolmoqda. Paxta hosildorligini oshirish maqsadida, yuqori texnologiyalardan foydalangan holda, barvaqt va sog'lom ko'chatlar olish maqsadga muvofiq. Ammo ekish davrida noqulay ob-havo, hususan tez-tez yog'ayotgan yomg'irlar va natijada havo haroratini o'ta pasayib ketishi hamda tuproqda qatqaloq hosil bo'lishi qator qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Bu esa, paxta hosildorligini kamayishiga va sifatini pasayishiga sabab bo'lmoqda. Bu omillarni bartaraf qilish yoki pasaytirish tufayli ko'saklarni ertaroq 12-15 kun avvalroq ochilishiga erishish sezilarli darajada hosildorlikni oshirishga, tola sifatini yuqori bo'lishga erishib, paxta yig'im terimini oktabr oyining o'rtalarida tugatishga olib keladi.

Masalani yechimi sifatida ko'rilyotgan plyonka ostiga chigit ekish sezilarli darajada mikroiklimni yaxshilashga, issiqlik va namlikni bir maromda

ushlab turishga, shu sababli urug'ni barvaqt unib chiqishiga va hosildorlikni oshishiga olib keladi.

Lekin ekilgan chigit qatorlariga plyonka yopish mashinasining konstruksiyasi ishlab chiqilmagan.

Shuning uchun ham **“Chigit ekish mashinasining plyonka yotqizish moslamasining konstruksiyasini va uni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish”** mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Ishning maqsadi va vazifalari: Chigit ekish mashinasining plyonka yotqizish moslamasining konstruksiyasini va uni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish ishning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot obekti va predmeti: Tadqiqot obekti va predmeti bo'lib plyonka yopqich moslamasi xizmat qiladi.

Tadqiqot uslubi va uslublari: Nazariy tadqiqotlar mashinasozlik texnologiyasi, extimollar nazariyasi va matematik statistika, nazariy mexanika, elastiklik nazariyasi fanlariga asoslangan holda amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangilik darajasi: Chigit ekish mashinasininig plyonka yotqizish moslamasini konstruksiyasi yaratildi. Plyonka yotqizish moslamasining o'lchamlari, uni ishlab chiqish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu: Plyonka yotqizish moslamasini chigit ekish paytida qo'llash ko'saklarni 12-15 kun avvalroq ochilishiga, hosildorlikni oshirishga, tola sifatini yuqori bo'lishga olib keladi.

Ish tuzilishi va tartibi: Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiya 81 sahifadan iborat bo'lib, o'z ichiga 23 ta rasm, 3 ta jadval, 85 nomli adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari:

Respublikamizda paxtachilikni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan fotoparchalanadigan plyonka ostiga yangi chigit ekish mashinasining konstruksiyasi va uni mahalliy sharoitlarda ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab

chiqildi. Natijada paxta erta yetilishi, yog'ingarchiliklarga qolmasdan terilishi oqibatida yuqori navli paxta tolalari olish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi:

Fotoparchalanuvchan plyonka ostika chigit ekish mashinasini ishlab chiqarishga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy raxbar: t.f.n., Q.M. Ermatov

(imzo)

Magistratura talabasi: X.J.Mamadaliyev

(imzo)

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
REPUBLIC OF UZBEKISTAN MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY
SPECIALIZED EDUCATION
ANDIJON MECHANICAL ENGINEERING INSTITUTE

Section: Magistracy

Master student: Mamadaliev Khayitali
Jaloliddin's son

Department: "Technology of
machine-building"

Scientific supervisor: PhD, Q.M. Ermatov

Education Year: 2017-2019

Specialty: 5A320201 "Technology and
equipment of machine-building"

Annotation of the Magistrates' Dissertation

Topic of the topic: Currently, the cotton fields are diminished, and cotton fertility is rising, and the quality of the fiber is up-to-date. In order to increase cotton yields, it is desirable to obtain early and healthy seedlings using high technologies. However, adverse weather conditions during the sowing period, such as frequent rains, and, as a result, the sharp fall of the air temperature and the extinction of the soil cause difficulties. This leads to a decrease in cotton fertility and a decrease in their quality. Thanks to the elimination or reduction of these factors, the achievement of the early twelve-thirteen days before the birth will result in a significant increase in fertility, high quality fiber, and the end of cotton harvesting in mid-October.

Sowing of seeds under the film, which is considered as a solution, can dramatically improve the microclimate, keep the heat and moisture content, and therefore increase the yield and increase productivity.

However, the design of the film-making machine has not been developed in the line of planting seeds.

Therefore, the theme "Development of the design and preparation technology of the filmmaking machine for the filmmaking machine" is actual.

Purpose and Objectives of the Work: The purpose of the work is to develop the design and production technology of a filmmaking machine.

Object and Subject of the Research: The object of the research is the film slot machine.

Research Methods and Techniques: Theoretical research has been based on the engineering technology, theory of mathematics and mathematical statistics, theoretical mechanics, elasticity theory.

Research Outcomes: The design of the film insertion machine for the sowing machine has been developed. The film-tape measuring device has been developed.

The practical significance and application of the research results: The use of film tape to be used during sowing will result in opening of the collar 12-15 days earlier, increasing yields, and high fiber quality.

Business structure and order: Introduction to the dissertation consists of 3 chapters and conclusions. The dissertation consists of 81 pages, including 23 pictures, 3 tables, 85 titles.

Main results of the done work: A photocompetent film for the further development of cotton growing in our country has developed a new plant for the production of seeds and the technology of its production at local conditions. As a result, early harvesting cotton and high quality cotton fiber can be achieved through harvesting.

A brief overview of conclusions and recommendations: It is desirable to introduce a photocatalytic film octagonal seed mill.

Scientific supervisor: PhD, Q.M. Ermatov

Master student: X.J.Mamadaliev

MUNDARIJA

Kirish.....	8
I bob. Plyonka ostiga chigit ekish mashinalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar	9
1.1 Mavjud chigit ekish mashinalarining tahlili	9
1.2 Plyonka ostiga ekish xorijiy mashinalarining tahlili	25
1.3 I bob bo'yicha xulosa.....	29
II bob. Chigit ekish mashinasining plyonka yotqizish moslamasining konstruksiyasini ishlab chiqish	30
2.1 Chigit ekish mashinasining plyonka yotqizish moslamasining konstruksiyasini yaratish	30
2.2 Tez suratda parchalanadigan ensiz plyonkalarni bilan qatorlarni yopadigan texnik vositalar sxemalari.....	31
2.3 Moslama parametrlarini nazariy asoslash	34
2.3 II bob bo'yicha xulosa.....	48
III bob. Chigit ekish mashinasining plyonka yotqizish moslamasini tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish	49
3.1 Plyonka yotqizish moslamasini yig'ish texnologik jarayoni.....	49
3.2 Moslamaning valini tayyorlash texnologik jarayoni.....	51
3.3 III bob bo'yicha xulosa.....	71
Xulosa	72
Adabiyotlar ro'yxati	74
Ilova.....	81

K I R I S H

Hozirgi vaqtda paxta ekish uchun mo'ljallangan dalalar qisqartirilgani tufayli paxta hosildorligini oshirish, tola sifatini ko'tarish, dolzarb bo'lib qolmoqda. Paxta hosildorligini oshirish maqsadida, yuqori texnologiyalardan foydalangan holda, barvaqt va sog'lom ko'chatlar olish maqsadga muvofiq. Ammo ekish davrida noqulay ob-havo, hususan tez-tez yog'ayotgan yomg'irlar va natijada havo haroratini o'ta pasayib ketishi hamda tuproqda qatqaloq hosil bo'lishi qator qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Bu esa, paxta hosildorligini kamayishiga va sifatini pasayishiga sabab bo'lmoqda. [2,37].

Masalani yechimi sifatida ko'rilyotgan Plyonka ostiga chigit ekish sezilarli darajada mikroiklimni yaxshilashga, issiqlik va namlikni bir maromda ushlab turishga, shu sababli urug'ni barvaqt unib chiqishiga va hosildorlikni oshishiga olib keladi. [2,37].

Biroq plyonkani qayta ishlatish maqsadga muvofiq emas, chunki yerga yopilgan plyonka qattiq ifloslanib, kuyib qoladi. Ishlatilgan plyonka qayta ishlashga yaramaydi va chiqindi tarzida atrof muhitga zarar beradigan darajada to'planib qoladi. [2].

Boshqa tomondan V.I.Edelshteyn ta'kidlashicha, ko'chatni birinchi vegetatsiya qismida, urug'ga yuqori qulaylik va sharoit yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. 2-vegetatsiya qismida plyonkani ta'siri yetarli bo'lmay qoladi. Chunki ko'chat jadal o'sishga kelib, egatdan ko'tarila boshlaydi. Shuning uchun so'nggi yillarda yuqori texnologiyalar asosida plyonkani ishlatish muddati qisqartirilib, atrofga zarar bermaydigan darajada mayda mikro bo'laklarga bo'linib yo'q bo'lib ketishiga erishildi. [2,77].

Shuning uchun fotoparchalanuvchan plyonka ostiga chigit ekish texnikasiga ehtiyoj tug'ildi. Lekin, bir vaqtning o'zida yerga urug' qadash va plyonka yopish texnologiyasi ishlab chiqilmagan. [2,66,67].

Shuning uchun ham chigit ekish mashinasining plyonka yotqizish moslamasining konstruksiyasini va uni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.


I bob. Plyonka ostiga chigit ekish mashinalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar

1.1 Mavjud chigit ekish mashinalarining tahlili

Mashinasozlikda chigit ekish uchun seyalkalarning besh xili ishlatilmoqda: birinchisi qator oralarini 60 *sm* qilib chigit ekishga mo'ljallangan CTX-4 markali seyalka; ikkinchisi qator oralarini 90 *sm* qilib chigit ekishga mo'ljallangan C4X-4A markali seyalka. Har ikkala seyalkaning ikki modifikatsiyasi bor; biridan plyonka yotqizish moslamasining chigit ekishda va ikkinchisidan tukli chigit ekishda foydalaniladi; uchinchi va to'rtinchilar CXY-4, SMX-4 rusumli seyalkalar bo'lib, ular yuqoridagi birinchi va ikkinchi rusumdagi seyalkalarning takomillashtirilgan variantlaridir; beshinchi chigitni plyonka ostiga qo'sh qatorlab ekadigan Andijon-2M seyalkasi. [3].

CTX-4 chigit seyalkasining tuzilishi va ishlashi. CTX-seyalkasidan qator oralarini 60 *sm* qilib ekishda foydalaniladi. Bu seyalkaning ikki xil modifikatsiyasi bor: CTX-4A-plyonka yotqizish moslamasining chigit ekishga va CTX-4B-tukli chigit ekishga mo'ljallangan.

CTX-4A markali seyalkaning tuzilishi. Seyalka ramasi kvadrat trubalardan to'g'ri to'rtburchak shaklida yasalgan bo'lib, ikki g'ildirakka tayanib turadi. Uning oldingi qismida tsapfalari va teshikli kronshteyni bor; kronshteyn seyalka ramasini traktorning osma sistemasi tortqilariga ulash uchun xizmat qiladi. Ramaning ko'ndalang kronshteynlariga podshipniklarda ekish apparatlarini xarakatlantirish asosiy vali o'tkazilgan. [3].



1-rasm. CTX4-4A markali seyalka bilan o'g'itlagichdan iborat agregat:

1-o'g'itlovchi apparat; 2-o'g'it soshnigi; 3-iz ko'rsatkich kronshteyni; 4-chigit soshnigi; 5-botiruvchi g'ildirakcha; 6-ekish apparati; 7-zagortachlar sektsiyasini ko'tarish mexanizmi; 8-o'rindi; 9-zichlovchi g'altak; 10-reja simi g'altagi; 11-iz ko'rsatkich; 12-tutkich; 13-harakatlantiruvchi asosiy val.

Seyalkaning oldingi brusiga soshniklar sektsiyalari, ketingi brusiga esa zagortachlar va prikatkaning sektsiyalari briktilirilgan.

Har qaysi soshnikka o'rnatilgan, ekish apparatini asosiy val konus reduktorlar hamda kardan valiklar yordamida xarakatlantiradi.

Seyalkaning chetki va o'rtadagi soshniklari orasiga gryadillar sharnirli briktilirilgan, KTX-4 kultivatorining egatolgichlari shu gryadillarga o'rnatiladi va ular yordamida chigit suvi berish uchun egatlar ochiladi.

Seyalka ramasing yon tomonlariga diskli ikkita iz ko'rsatkich briktilirilgan. Ilgaklar ularni ko'tarib qo'yilgan holda ushlab turadi.

Seyalka zinopaya, o'rindi, tutkich, hamda zaxira urug'lik material saqlanadigan qo'shimcha idish bilan jixozlangan.


Chigitning ekilishini nazorat qilib borish uchun chigitni ko'madigan ish organlarining chetki sektsiyalarini ko'tarish maqsadida seyalkaga ikki richagli valikdan iborat ko'tarish mexanizmi o'rnatilgan, richaglar esa sektsiyalarga zanjirlar vositasida ulangan.

CTX-4Б seyalkasining CTX-4A seyalkasidan farqi shuki, uning soshniklariga plyonka yotqizish moslamasining chigitni aniq me'yorda ekadigan apparatlar o'rniga uya hosil qiladigan apparatlar o'rnatilgan.

Tukli chigit ekish seyalkasining ramasiga ikkita ekish apparati o'rnatiladi. Apparatlarning valiklari bir-biriga trubasimon val bilan ulanadi.

Ekish apparatlarining voronkalari uya hosil qiladigan apparatlarning darchalariga spiral shaklidagi urug' o'tkazgichlar vositasida ulanadi.

Ekish apparatlari seyalkaning o'ng g'ildiragidan xarakatlantiriladi, xarakat zanjir uzatma va kontur yuritma yordamida uzatiladi. Seyalka turli ekish sxemalarida ishlatilganda chigit ekish apparatlari g'altaklarini harakatlantiradigan trubasimon valning aylanish chastotasi yulduzchalar bloki yordamida o'zgartiriladi va chigit tushadigan darchalar Qopqoqchalar yordamida ko'proq yoki kamroq ochiladi.



2-rasm CTX-4Б markali seyalka ekish apparatlarining

yuritmasi:

1-zanjir; 2-kojux; 3-gupchak; 4-g'ildirak; 5-Z=29 tishli yulduzcha; 6-taranglash roligi; 7-yuritma kronshteyni; 8-rama; 9-trubasimon val; 10 va 11-Z=22 va Z=16 tishli yulduzchalar; 12-ekish apparati; 13-Z=22 va Z=16 tishli yulduzchalar bloki.

CTX-seyalkasining ikkala modifikatsiyasi ham chigitni uyalar orasini 22 sm qilib va qatorlab ekish mumkin. CTX-4 markali seyalkaga C4X-4A markali seyalkadan olingan SCHX-31 ekish apparati o'rnatilganda uyalar orasi 30, 20 va 15 sm qilib, shunga yarasha har uyaga 4,3 va 2 donadan chigit tashlab ketishi mumkin. Bu seyalkada hatto makkajo'xori va oddiy jo'xori ekish ham mumkin.

Seyalkani KIIIX-4 kultivatorining o'g'itlagichi, gerbitsid sepadigan IIIC-2,4B tipdagi moslama bilan birga ishlatsa ham bo'ladi, shunda chigit ekish bilan bir yo'la o'g'it va gerbitsid ham solib ketiladi.

Seyalka koleyasining kengligi 2400 mm bo'lgan va osma mexanizm bilan jihozlangan TT3-80-11 markali traktorga osiladi. Seyalkaga traktorchi va ekuvchi xizmat ko'rsatadi.

C4X-4A chigit seyalkasining tuzilishi va ishlashi. Xozir qatorlar orasini 90 sm qilib chigit ekishga mo'ljallangan C4X-4A seyalkasining ikki xili ishlab chiqarilmoqda: tukli chigit ekadigan C4X-4A-1 markali seyalka va plyonka yotqizish moslamasining chigit ekadigan C4X-4A-III markali seyalka.

C4X-4 markali seyalka CTX-4 seyalkasidan konstruksiyasining o'ziga xosligi bilan farq qiladi.

C4X-4A-1 seyalkasiga tukli chigit ekadigan to'rtta apparat o'rnatilgan. Ekish apparatlarining har birida soshnikka chigit tushib turadigan bitta darcha va bitta ekish g'altagi bor, apparat seyalka ramasining ketingi brusiga kronshteyn yordamida o'rnatiladi.


Bu seyalka chigitni qatorlab, uyalab (uyalar oralig'ini har xil olish mumkin) va donalab (punktir usulida) eka oladi. Seyalkaga o'rnatilgan ikkita (o'ng va chap) yuritish vali ekish apparati bilan uya hosil qilish apparatini harakatlantiradi; vallarga aylanma xarakat seyalka g'ildiraklaridan bir xildagi zanjirli uzatmalar orqali o'tadi. Tukli chigit ekadigan apparatlarning har birini Shu val doimiy zanjirli uzatma yordamida, uya hosil qiladigan yoki aniq me'yorda ekadigan apparatlarni esa (CTX-4 seyalkasidagi kabi) konus reduktorlar yordamida harakatlantiradi.

Uyalar oralig'ini va ekish me'yorini o'zgartirish uchun seyalkaning zanjirli uzatmalaridagi almashma yulduzchalardan foydalaniladi.

Plyonka yotqizish moslamasining chigitni aniq belgilangan me'yorda ekadigan apparatlarning farqi shuki, uning tushirgichi yulduzcha shaklida bo'lib, ekish diskining tashqi aylanasi 48 ta katakcha bor; katakchalarning oralig'i bir xildir. Zavod seyalkaga ikki komplekt disk qo'shib beradi;

seyalkani ishlatish vaqtida urug'lik chigitning fraktsiyalariga qarab, disklarning tegishli komplekti bo'yicha tanlanadi.

Har uyaga ekiladigan chigit miqdorini va uyalar oralig'ini o'zgartirish uchun apparat 3,4,6,8 va 12 kurakchali disklar bilan ta'minlanadi. Seyalkani makkajo'xori ekishga moslaganda apparat ichiga o'lchami $9 \times 16 \text{ mm}$ bo'lgan 16 katakchali disklar o'rnatilgan.



3-rasm. C4X-4A-III

markali seyalka

1-aniq miqdorda ekish apparati; 2-soshnik seyalkasi; 3-chigitni ko'madigan ish organlari sektsiyasi; 4-rama; 5-chigit saqlanadigan idish; 6-harakatlantiruvchi chap val; 7-izko'rsatkich.

Bu seyalkaning chigitni ko'mib ketadigan ish organlari va boshqa uzal hamda detallarining tuzilishi CTX-4 seyalkasining o'xshaydi.


C4X-4A markali seyalkani KPX-3,6 kultivatorining o'g'itlagichi va ПГС-2,4Б moslamasi bilan qo'shib ishlatish mumkin, bunda chigit ekish bilan bir vaqtda o'g'it va gerbitsid solib ketiladi. Seyalka TT3-80-11 va MT3-80X markali traktorlar bilan ishlatiladi.

MT3-80X traktoriga seyalkani o'rnatish uchun maxsus kashakdan foydalaniladi. Seyalkaga ikki kishi-traktorchil bilan ekuvchi xizmat qiladi.

CXY-4 rusumli chigit seyalkasining tuzilishi va ishlashi. CTX-4 va C4X-4A markali seyalkalar o'rniga CXY-4 markali universal seyalka chiqarilmoqda. Bu seyalkaning xususiyatlari shundaki, u g'o'za qator oralarini 60 va 90 sm qilib olishga imkon beradi. Bu seyalkaning uch modifikatsiyasi ishlab chiqarilmoqda: tukli va plyonka yotqizish moslamasining chigit ekadigan almashma apparatlar bilan ta'minlangan CXY-4; faqat tukli chigit ekishga mo'ljallangan CXY-4-I, faqat plyonka yotqizish moslamasining chigit ekishga mo'ljallangan CXY-4-II.

CXY-4 markali universal seyalka CTX-4 va C4X-4 seyalkalaridan quyidagilar bilan farqlanadi. Qatorlar oralig'ini 60 sm yoki 90 sm qilishda soshniklarning va urug' ko'madigan ish organlari (prikatka va zagortachlar)ning seksiyalari seyalka ramasida siljitib, xomutlar bilan mahkamlanadi, uya hosil qiluvchi apparatlarning yuritish vallaridagi konus reduktorlar yangi joyga surilib, tegishli briktiladi, agatolgichlarning gryadillari, izko'rsatkichlarning o'rni o'zgartiriladi.

Bu seyalka uyalar oralig'ini, tukli hamda plyonka yotqizish moslamasining chigit ekish me'yorlarini istagancha o'zgartirish imkonini beradi. Masalan, plyonka yotqizish moslamasining chigitni donalab ekishda uyalar orasini 7,5 sm qilib, har uyaga bir donadan chigit tashlash, ekishda uyalar oralig'ini 7, 8, 9, 10, 13 va 15 sm qilib har uyaga 2 donadan chigit ekish yoki uyalar oralig'ini 15 sm qilib har uyaga 2 yoki 3 donadan, yoxud uyalar oralig'ini 20 sm qilib, har uyaga 3 yoki 4 donadan chigit ekish mumkin. Paykallar chetiga 3 sm oralatib bir donadan yoki qatorning har metriga 30-35 donadan chigit ekiladi. Tukli chigit ekishda ham qator oralari shunday olinadi, har uyaga tashlanadigan chigitlar soni 3-8 dona atrofida o'zgartiriladi. Paykallarning chetlariga qatorlab ekishda har metriga 40-50 dona chigit tashlanadi.



4-rasm. Tukli chigit ekishga moslangan CXY-4 markali seyalka:

1-rama; 2- Pnevmatik shinrali g'ildirak; 3-soshnik seksiyasi; 4- chigitni ko'madigan ish organlari seksiyasi; 5-tukli chigit ekadigan apparat; 6- izko'rsatkich.

Seyalka konstruksiyasining yana bir farqi shuki, unga boshqa seyalkalardagi kabi 2 ta metall g'ildirak emas, balki pnevmatik shinali faqat bitta tayanch-xarakatlantiruvchi g'ildirak o'rnatilgan va bu g'ildirak seyalka ramasining markazida joylashgan. Aylanma xarakat seyalka o'qidagi yulduzchadan zanjir uzatma orqali oraliq valga, undan esa uya hosil qilish apparatlarining yuritish vallariga (plyonka yotqizish moslamasining chigit ekishda esa ekish apparatlarining yuritmalariga) uzatiladi.

CXY-4 markali seyalkada ekish apparatlarining tuksiz chigit solinadigan idishi ham, tukli chigit solinadigan idishi ham uzunchoq shaklda bo'lib, sig'imi kattaroqdir.

Seyalkaning chigitni ko'madigan ish organlarida ham farq bor: soshnikka kesak chetlatkich, chetlatuvchi plankalar va kichkina ag'dargichlar briktirilgan, bu ag'dargichlar tuproqning quruq yuza qatlamini chetga surish va soshnik ochadigan egatchaga uchburchakli shakl berish uchun xizmat qiladi. Soshnikdagi old zagortachlar egatchalar devorchasidan yupqa nam tuproq qatlamini kesib olib, chigitlar ustiga tashlab, ularni qisman ko'mib ketadi. Chigitlarni belgilangan chuqurlikda uzil-kesil ko'milishi uchun oddiy lekin kurakchalari biroz uzaytirilgan zagortachlar xizmat qiladi.

Seyalkaning takomillashtirilgan urug' ko'mish organlaridan O'zbekiston Respublikalariga xos quruq tuproqli yerlarda foydalanilsa, chigit odatdagi ish organlari bilan ko'milgandagiga qaraganda yaxshiroq unib chiqadi. Biroq tuproq yetarli darajada nam bo'lganda (xususan baxorgi seryog'in davrda) chigitlar takomillashtirilgan ish organlari bilan ko'miladimi yoki oddiy ish organlari bilanmi, bundan qat'iy nazar ularning chiqish sifati bir xil bo'ladi.

Shuni unutmaslik kerakki, yangi ish organlariga xas-chop tez-tez tiqilib qoladi va nam tuproq yopishadi, shunga ko'ra dalani g'o'zapoya va o'simlik qoldiqlaridan yaxshiroq tozalash talab qilinadi.

CXY-4 seyalkasida ishlatiladigan izko'rsatkich gidravlik slindrlar yordamida traktorchi kabinasidan boshqariladi. CXY-4 seyalkasining konstruksiyasi bilan CTX-4 va C4X-4A seyalkalarining konstruksiyalari o'rtasida boshqa farq yo'q, CXY-4 ga ham turlicha yiriklikdagi plyonka

yotqizish moslamasining chigitlarni ekishga mo'ljallangan 48 katakchali 2 xil disk o'rnatilgan.


CXY-4 markali seyalkada "Kedr-1" elektron sistemasi mavjudligi uning muhim fazilati hisoblanadi. Bu sistema soshnikdan chigit ekilayotganini, bankalardagi urug'lik material sathini va moslama uchliklaridan gerbitsid eritmasining prukalayotganini nazorat qilish va signal berish uchun xizmat qiladi hamda ekish agregatni faqat bir kishi, ya'ni traktorchining o'zi boshqarishiga imkon beradi. Elektron sistema traktorning boshqarish shitogiga o'rnatiladigan pult, keltiruvchi kabellar, kuchaytirgich va datchikdan tashkil topgan. Datchiklarning ishi chigitlarning fotonurlarni kesib o'tishiga yoki suyuqlik (gerbitsid eritmasi) ning sezgir elementlarga tegib o'tishiga asoslangan bo'lib, bu vaqtda hosil bo'lgan yorug'lik va tovush signallari sistema pultida qayd qilinadi. Seyalkaga qo'shib beriladigan qo'llanmada "Kedr-1" sistemasining tuzilishi va ishlashi batafsil bayon etilgan.

Modulli chigit seyalkasi universal bo'lib, tukli chigitni namlangan holda ekish uchun g'altaksimon miqdorlagich bilan tuksizlantirilgan hamda kalibrlangan chigitni ekish uchun esa disksimon miqdorlagich bilan jihozlangan. Chigitdan tashqari, makkajo'xori va sorgo urug'larini tekislangan dala yoki oldindan tayyorlangan oddiy va usti tekislangan pushtalarga donalab, dona-uyalab, qator oralig'i 60 yoki 90 sm qilib ekishga mo'ljallangan. Don uchun o'stiriladigan makkajo'xorini 70 sm li qator oraligi xosil qilib ekiladi.

Seyalka urug' ekish bilan birgalikda sug'orish jo'yaklarini ham oladi, qator yon tomonlariga o'g'it soladi. Ekilgan urug'lar atrofiga gerbitsid eritmasini purkaydi.

Modulli chigit seyalkasi qator oralig'i $v_q = 60$ sm li, 4 qatorga eksa, har bir ekspluatatsion soatiga 1,2 gektar, $v_q = 90$ sm bo'lganda esa 1,8 gektargacha urug' qadashi mumkin (ishchi tezlik $V_i = 6 \dots 10$ km/soatgacha). Sharoitga qarab, chigitni 3...8 sm chuqurlikda ko'mib ketadi. Tuksizlantirilib, kalibrlangan chigitni $v_q = 60$ sm qator oralig'ida gektariga 160...330 ming dona, $v_q = 90$ sm bo'lganda 111...222 ming dona eka oladi. Tukli chigitni namlangan holatda

ekishda esa $v_q = 60$ sm da 250...500 ming dona, $v_q = 90$ sm qator oralig'ida esa 166...333 ming dona ekib berish imkoniyatiga ega.




5-rasm. Modulli chigit

seyalkasining umumiy ko'rinishi:

1-ekish seksiyalari; 2 va 6
iztortkichlar; 3-osish moslamasi; 4-
qulf; 5-gidrosistema; 7-
yorug'qaytargich; 8-nazorat tizimi; 9-
harakat yuritmasi; 10-ko'ndalang brus;
11-tozalagich; 12-to'siq; 13- taranglash
moslamasi; 14-kardan.

Donalab ekishda, kataklar soni 64 bo'lgan disk ishlatilsa, har bir metr uzunlikka 10...30 dona ekadi. Tukli chigitni esa qatorlab -15...35 dona eka oldai. Uyalab ekishda har bir uyaga tuksizlantirilgan chigitni (24 katakli disk ishlatilsa), 2 ± 1 yoki 3 ± 1 dona ekadi.

Modulli chigit seyalkasining umumiy ko'rinishi 5-rasmda ko'rsatilgan. Har bir qator uchun aloxida seksiya 1 xizmat qiladi. Seyalka ko'ndalang brus 10, traktorga osish moslamasi 3, ekish seksiyasi 1, harakat yuritmasi 9, iztortkich 2 va 6, yorug' qaytargich 7, gidrosistema 5, taranglash moslamasi 13, kardanli uzatma 14, to'siq 12, tozalagich 11 lardan iborat.



6-rasm. Modulli chigit


seyalkasining seksiyasi

(a) va uning ekkichi (b):

1-zanjirli uzatma; 2-ekish
chuqurligini rostlash
vinti; 3-ekkich; 4-
kurakchasimon ko'mgich;
5-zichlovchi g'ildirakcha;

6-to'dalovchi apparat; 7-kardanli val; 8- miqdorlagich; 9-ko'ndalang brus; 10-tayanch g'ildirak.

G'altaksimon miqdorlagichli ekish seksiyasining tuzilishi (7-rasm): g'altaksimon miqdorlagich 8 va unga harakat beruvchi tayanch g'ildirak 10, harakatni uzatuvchi kardanli val 7, ekkich 3 ning tuproqqa botishini sozlagich 2, ekilgan urug'ni ko'mgich 4, zichlovchi g'ildirakcha 5 lardan iborat bo'lib, ular ko'ndalang brus 9 ga briktililgan.



1.7-rasm. Modulli chigit seyalkasining g'altaksimon miqdorligichi:

1-to'siqcha; 2-quloqli gayka; 3-quti; 4-to'zitgich chivig'i; 5-shplint; 6-o'q; 7-bo'shliq; 8-ta'minlagich; 9,12-konussimon shesternya; 10-xomut; 11-bolt; 13-tavotnitsa; 14-tishli yulduzcha; 15-o'q; 16-appart vali; 17-apparat tubi; 18-shplint; 19-tishli g'altak; 20-tarnov.

Modulli chigit seyalkasining g'altaksimon miqdorlagichi 7-rasmda ko'rsatilgan, u quyidagicha tuzilgan bo'lib, urug' qutisi 3 ning pastki slindrik qismi cho'yan tub 17 ga o'rnatilgan. Tubning tagida ikkita quyma quloqchaga val 16 ning vtulkalari hamda ishqalanuvchi sirtlarini moylash uchun tavotnitsa joylashtirilgan. Barmoqli disk 8 plastmassadan tayyorlangan. Diskning gardishi bilan 22 ta barmoq bir tekis joylashgan simmetrik barmoqlarning gorizontall tekislikka proyeksiyasi muntazam trapetsiya shaklida bo'ladi. Barmoqlarning ko'ndalang kesimi romb shaklida yasalgan. Barmoqli disk yetaklanuvchi katta konussimon shesternya 9 ga vintlar bilan mahkamlangan. Diskka prujinali po'lat chiviq-to'zitgich 4 mahkamlangan. Chiviqning prujinali qismi shplint 5 li o'q 15 ga erkin kiygizilgan. Chiviq va barmoqli disk birgalikda to'zitgich-

ta'minlagich vazifasini bajaradi. To'zitgich-ta'minlagich konussimon shesternya 9 bilan birga apparat tubining aylanma chizig'iga qo'yiladi va unga maxsus o'q 6 bilan biriktiriladi. O'q rezbasining uzunligi shunday tanlanganki, u apparat tubining oxirigacha burab kirgizilganda, barmoqli disk vertikal o'q atrofida yengil aylana oladi. Rezbaning yo'nalishi yetaklanuvchi shesternyaning aylanish tomoniga mos keladi. Shu tufayli apparat ishlaganida vertikal o'q 6 o'z-o'zidan buralib, bo'shamaydi.

Apparatning vali 16, seyalkaning validan aylanma harakat uzatuvchi yulduzcha 14, yetakchi konussimon shesternya 12 (Z_1-18) va tishli g'altak 19, shplint 18 lar bilan mahkamlanadi. Shesternyaning val bo'ylab siljishiga yo'l qo'ymaslik uchun xomutcha 10 bolt 11 bilan qisib qo'yilgan. Apparat chigit va tolalar bilan tiqilib qolganda yoki yot narsalar tushganida shplintlar qirqilib, aylanuvchi qismlarni sinishdan saqlaydi. Vertikal o'qning yuqori uchiga qalpoq va dasta payvandlangan. Qopqoq o'qning ishqalanuvchi sirtini changdan, shesternyani esa vertikal siljishdan saqlaydi. Bo'shliq 7 moy bilan to'ldiriladi.

Miqdorligichning tishli g'altagi 19, qalinligi 3 mm va tashqi diametri 107 mm li po'lat diskdan iborat. G'altak tishlari (16 ta) diskning aylanasi bo'ylab bir tekis joylashgan. Tishlarning balandligi 7 mm. G'altak yetakchi shesternya 12 ga nisbatan diametral qarama-qarshi tomonda joylashgani uchun uning yuqorigi tishlari ta'minlash kamerasidagi chigitlar oqimiga qarshi aylanadi. Ekish me'yori urug' tushadigan darchani ochib-yopadigan to'siqcha 1 bilan rostlanadi. To'siqcha quloqchali gayka 2 bilan siljiriladi. To'siqcha sirtida har 2 mm oraliqda chiziqlar bor. Ekish me'yori shu shkalaga qarab rostlanadi.


Seyalka ishlab tebranishi natijasida, to'siqchaning vaziyati o'z-o'zidan o'zgarib qolishi mumkin. Shuning uchun plyonka yotqizish moslamasi apparatini rostlash paytida to'siqchaning Shu vaziyati hisobga olinib, prujina to'siqchaning qayrilgan uchini gayka sirtiga qisib, uning o'z-o'zidan buralib bo'shashiga yo'l qo'ymay, to'siqchani belgilangan holatda saqlashni ta'minlaydigan qilib qo'yish lozim.

Ekish darchasidan tashqariga chiqarilgan chigitlar tarnov 20 ga, so'ngra urug' o'tkazgich orqali ekkichga tushadi.

Modulli chigit seyalkasining disksimon hamda g'altaksimon miqdorlagichlarining ko'p qismlari umumiy bo'lib, bir-biriga tushadigandek qilib yasaladi. Masalan, g'altaksimon miqdorligichni disksimonga aylantirish uchun 7-rasmdagi barmoqli disk 8 yechib olinadi va uning o'rniga katakchali disk 4 (8-rasm) konussimon shesternya 1 ning ustiga o'rnatiladi.

Oraliq disk 3 dagi ovalsimon teshiklarni, apparat tubidagi ovalsimon teshiklarning ustiga tushirib o'rnatiladi. Shesternya 1 ga o'rnatilgan katakchali disk 4 apparat ichiga solingandan so'ng, chap rezbali o'q 6 qotiriladi va konussimon shesternya 1 bilan katakli disk erkin aylanadi.

Qo'zg'almas to'siq disk 5, o'rtadagi disk 3 ning fiksatoriga o'rnatilgan bo'lib, uning pastki tomoniga qaytargich to'siq biriktiriladi.



**8-rasm. Modulli chigit seyalkasining
disksimon miqdorligichi**

*1-shesternya; 2-urug'o'tkazgich; 3-oraliq
disk; 4- katakchali disk; 5-to'siq disk; 6-
o'q; 7-gayka.*

Almashtirib ishlatish uchun seyalka yetti dona katakchali disk bilan ta'minlanadi. Shu jumladan, katakchalar soni 64 ta bo'lgan disk tuksizlantirilib, kalibrlangan, sifatli chigitni donalab ekishda ishlatiladi. Sifati pastroq bo'lgan chigit ekilganda esa bir necha urug'ni to'plab, ajratib beradigan 24 ta katakchali diskdan foydalangan ma'qul. Mayda, uzunligi 8,5 mm dan qisqaroq bo'lgan urug'ni ekishda 12 mm li katakchali disk bir uyaga 2 dona chigit, 14 mm li katakchali disk esa 3 tadan chigit ajratib beradi.

Agar modulli seyalka disksimon plyonka yotqizish moslamasi bilan ishlatilsa, uning to'dalovchi diski olib qo'yiladi.

Seyalkaning ishi quyidagi tartibda bajariladi. Dala bo'ylab harakatlanayotgan seyalkaning har bir g'ildiragi, uning ikkita valiga harakat beradi. Konussimon uzatma yordamida harakat validan miqdorlagichdagi g'altak, urug' to'zitgich va urug'to'ldiruvchi apparatga uzatiladi.

Aylanayotgan to'zitkich namlangan tukli chigitlar bir-biriga yopisha boshlaganda, ularni ajratib, pastga, plyonka yotqizish moslamasi g'altagiga uzluksiz tushirib turadi. Aylanayotgan g'altak o'z novlarining ichiga bittadan chigitni kiritib olib va urug' o'tkazgichning tarnoviga tashlaydi. Uyalab ekishda chigit u yerdan to'dalovchi apparatga tushadi. To'dalovchi apparat diskdagi parraklar soni va aylanish tezligi har bir uyaga tushishi kerak bo'lgan chigitlar soniga qarab tanlanadi. Parrak to'dalangan (1...4 donalab) chigitlarni apparat tubidagi darchadan yerga, ariqchaga tushirib yuboradi. Kurakchasimon ko'mgichlar tuproqni chigit ustiga sidirib, ikki tomondan ko'madi. Zichlovchi g'ildirakcha chigit ustidagi tuproqni bosib zichlaydi. Zichlangan tuproqning usti nishab qilinadi, aks holda yomg'ir suvlari chetga ketmasdan chigit ustida qatqaloq paydo qilishi mumkin.

Gektariga chigitning kerakli sonini ekishga g'altakning aylanish tezligini hamda ekish darchasi kengligini o'zgartirish bilan erishiladi. Uyalardagi chigitlar sonini o'zgartirish, to'dalovchi diskning aylanish tezligi va yulduzchalarni almashtirish hisobiga rostlanadi.

Tuksizlantirilgan chigitni yoki makkajo'xori urug'ini ekkanda disksimon miqdorlagichni ishlatgan ma'qul. Tuksizlantirilgan chigit to'kiluvchan bo'lganligi sababli, disksimon miqdorlagichga to'zitgich o'rnatish talab qilinmaydi. Aylanayotgan disk katakchalariga chala tushgan chigitni qaytargich olib qoladi. Disk kataklariga kirgan chigit qaytargichdan o'tgandan so'ng, chigit ekish darchasidan pastga, bevosita urug' o'tkazgichga, keyin ekkich tayyorlagan ariqcha tubiga tushadi va tuproq bilan qo'miladi.


Tekis dala yoki turli o'lchamdagi pushta bo'ylab ekishda, tayanch g'ildirak holati ramaga nisbatan maxsus vint bilan o'zgartiriladi.

Modulli seyalkadan foydalanish. Tuproqning 10 sm chuqurlikdagi namligi 20 % dan kamayib, harorat 14 °S dan oshganda ekish mavsumi boshlanadi. Mavsum boshida namlangan tukli chigit ekilib, keyinroq tuproq qiziganda tuksizlantirilgan chigitni ekish tavsiya qilinadi. Seyalkani turli miqdordagi urug' ekishga sozlashda, unga yopishtirilgan maxsus jadvaldan foydalanish kerak.

Ish xolatidagi seyalkaning ekkichlari yerga parallel bo'lishi kerak. Ammo, qumloq tuproqli yerlarda seyalkani orqa tomonga 5...7° ga engashtirib qo'yish lozim, aks holda ekkich sirpang'ichini oldiga tuproq uyumlanib qoladi.

Modulli chigit seyalkasiga uning qutilaridagi urug' sathini, to'dalovchi apparat ishini hamda gerbitsid purkashning uzuluksizligini nazorat qilishi uchun elektron «Kedr» tizimi o'rnatilgan.

Chigitni plyonka ostiga ekish seyalkasi «Andijon-2». Chigit ekish uchun tayyorlangan tekis dalaga qator orasi 90 sm qilib plyonka ostiga chigit ekish uchun xizmat qiladi.[4].



10-rasm. Chigitni plyonka ostiga ekadigan seyalkaning sxemasi:

a) yon ko'rinishi; b) ustki ko'rinishi; v) ishchi qismlar ish jarayonlarining sxemasi; 1-osish moslamasi; 2-rama; 3-plyonka yotqizish moslamasi; 4-er tekislagich; 5 va 6 sferik disklar; 7 va 8 juvalar; 9-sidirgich; 10-zichlagich

Seyalkaning tuzilishi. Seyalka rama, ikkita madaniy o'g'itlar solish sistemasi, to'rtta polietelen uzatish sistemasi, sakkizta ekish barabani, sakkizta

g'ildirakcha, beshta ulovchi, ikkita chetki marker va ikkita tayanch g'ildiraklaridan iborat.

Rama po'lat shvellerlardan payvandlangan konstruktsiya bo'lib seyalkaning barcha tarkibiy qismlarini briktirishga mo'ljallangan. Ramaning oldingi to'sishida madaniy o'g'itlar sistemasini mahkamlash uchun teshiklar mavjud va tarkorning osma sistemasiga seyalkani maxkamlash uchun kronshteynlar sistemasi o'rnatilgan.

Orqa balkada ekish barabanlarini maxkamlash uchun quloqchalar va plyonkali barabanlarni mahkamlash uchun kronshteynlar o'rnatilgan. Rama ostida ulovchilarni maxkamlash shtangalar va tayanch g'ildiraklari plyonka uzatish sistemasining yo'naltiruvchi roliklarini, maxkamlash uchun kronshteynlar mavjud.


Polietilen plyonka uzatish sistemasi baraban, uchta yo'naltiruvchi rolik, ikki juft oldingi va ikki juft orqa diskli plug tishlaridan tarkib topgan. Ekish barabani shtamplangan g'ildirak ko'rinishida bo'lib, gardishida klapan va dozotorlari mavjud 12 dona mundshtuk o'rnatilgan. [2,3,4].

Seyalkaning ishlashi. Agregatning xarakat xolatida tayanch g'ildiraklari tuproq bilan ishqalanish natijasida o'z o'qi atrofida aylana boshlaydi. Ushbu jarayon bilan bir paytda tuproqqa plyonka ham qo'yiladi, diskli plug tishlarining oldingi jufti yo'naltiruvchi roliklar sistemasi orqali barabandan uzatiladigan polietilen plyonkalarni bostirish uchun tuproqqa ariqchalar qaziydi, ekish barabani mundshtuklari plyonkani teshib urug'ni tuproqqa qadaydi. plug tishlarining orqa jufti plyonka chetlarini tuproq bilan bostirib, otval va yurituvchi g'ildiraklar plyonkani bostirishni nixoyasiga yetkazadilar. Ulovchilar qatorlar orasida sug'orish ariqchalarini ochadilar. [3].

1.2 Plyonka ostiga ekish xorijiy mashinalarining tahlili

Fransuz firmasi “Polyani” sabzavot va makkajuxori ekinlarini plyonka ostiga ekish texnologiyalarini ishlab chiqib tajriba qildi. Texnologiya urug’ini tuproqqa kerakli chuqurlikda ekishni va plyonkani qatorlar aro yopishni taminlaydi.

Bu usul doim ham plyonka teshiklari tuproqqa ekilgan urug’lar ustiga to’g’ri tushmas edi. [2].



11 – Rasm. “Polyane” firmasining plyonka ostiga ekish texnologik sxemasi

1-Ekilgan urug’; 2- plyonka ruloni; 3-perferator; 4-seyalka soshnigi; 5-yotqizilgan va perforallangan plyonka; 6-perforatsiya.


Keyingi texnologik takomillashuvlar plyonka ostiga ekish uchun mo’ljallangan seyalkalarni, plyonkalarni yopish va urug’ ustiga sinxron holda teshikchalarni to’g’ri kelishini ta’minlashdan iborat bo’ldi.

Fransiyadagi “Huard” va “Cadama” firmalari 2-4 va 6 qatorli makkajuxori urug’ini erta ekish uchun mo’llangan agregatini ishlab chiqaradi. Seyalka diskli ishchi organlar bilan jihozlangan bo’lib, egatlarni tayyorlash, plyonkani ikki valsovka bilan yotqizib, tuproqni notekis joylarini tekislab, pyonkani chetlarini bir tekisda bostirib, sinxron tarzda

shilayotgan perforatsion baraban bilan birga urug'larni ekib boradi. [2,81,83].

Perforatsion baraban, ekuvchi apparatning ostiga o'rnatilgan tarkibiy qismiga rotatsion disk c 18 urug'larni atrofi tishli bo'lib, urug'larni plyonka teshigi tomon yo'naltirib turadi. Seyalka ekishda 70-75 ming urug'ni 1 gektarga eni 0.4-0.8 m ekishni ta'minlaydi. plyonka eni 1.40 m. seyalka unumdorligi 0.8gektar/soat, ish tezligi – 0.97... 1.67m/s

“HUARD” firmasi seyalkasining sxemasi



12 – Rasm.

1-diskli lemx (plug tishi); 2-taranglovchi va yotqizadigan valiklar; 3-plyonka ruloni; 4-bosib kirgizadigan g'ildirak; 5-plyonka chetlarini yoyuvchi lemx; 6-ekuvchi g'altak; 7-tuproqdagi urug'.

So'nggi yillari fransuz firmasi “Huard” plyonka ostiga makkajuxori ekinini ekish seyalkasini birmuncha mukammallashgan turini ishlab chiqishga kirishdi. Bu seyalkalar ikkinchi avlod bo'ladi. Uning tuzumi plyonkani o'rash va yoyishda kichik gabaridda bo'lib, u mashina oldida bo'lib, osongina mahalliy

yerlarga joylashishga va plyonkani yotqizib, chetlarini bostirishga mo'ljallangan.

Germaniya firmasi "Fahse" "Monoair F" seyalkasi konstruksiyasida plyonka ostiga sabzavot ekinlarini aniqlik bilan ekish uchun ko'p qismli ekuvchi apparat ishlatilgan, plyonka yotqizish uchun, yig'ishtirib oluvchi, bu seyalkani universallashtirib, eni 0.9 dan 1.40 m bo'lgan plyonkalarni ishlatishni taminlaydi. [2,81].

"Fahse" firmasi plyonka yotqizish sistemali seyalkasi quyidagilardan tashkil topgan.

1-tekislaydigan g'ildirak; 2-ekadigan g'altak; 3-yuradigan g'ildirak; 4-plyonka yopadigan qurilma; 5-plyonkani aylantiruvchi g'ildirak; 6-egatlarni shakllantiruvchi diskli lemx (plug tishi); 7-plyonka ruloni; 8-bostirmali sistema; 9-ko'tarma qurilma; 10-plyonka kesish uchun termorezka; 11-urug' solinadigan yashik; 12-ekadigan mexanizm.

Buyuk Britaniya firmasi " Polycrop" plyonka yotqizish uchun mo'ljallangan 2 diskli ishchi organ va lentani o'rovchi qurilma, plyonka chetlarini tekislab boruvchi, "Xero" firmasi maxsus osma mashina Reelmaster" tuproqdan plyonka chetlarini chiqarib, g'altakka o'rovchi mashina ishlab chiqaradi. [2,84].

Niderlandiyada ochiq yerga plyonka yotqizish uchun turli osma mashinalar ishlatiladi, qaysiki mustaqil ishlovchi yoki seyalka bilan sabzavotlar ekish uchun Qishloq xo'jalik mexanizatsiya institutida "Waganingen" bir vaqtning o'zida ham plyonka ham yotqizib, hamda aniqlik bilan urug' ekadigan seyalka ishlab chiqilgan seyalka sabzavot ekinlarini ensiz, eni 0.2 m plyonka bilan yopib boradi. [2,84].

Shunday qilib, chet elda doimiy ravishda urug' ekishda ishlatiladigan polimer plyonkalarni takomillashtirilib boriladi va ularning texnik vositalarini amalga oshirilib boriladi.

Paxta yetishtirishda chigitni plyonka ostiga ekish.

Iqlim o'zgarishidan kelib chiqadigan vaziyat, bozor sharoitidagi iqtisodiy muammolar mamlakat valyuta tushumining 55 foizini berayotgan paxtachilikni

rivojlantirishda tub burilish qilish zaruratini paydo qilmoqda. Ana Shu zarurat «paxtachilikda Andijon uslubi» deb nom olgan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasining vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 22 noyabrda «G'o'zani plyonka ostida o'stirishga oid chora tadbirlar to'g'risidagi» 410-sonli qarori bu texnologiyani tajribadan davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Natijada paxtachilikda hosildorlikni oshirish, xo'jaliklar iqtisodiyotini rivojlantirish va dehqon mehnatini munosib rag'batlantirish uchun sharoit yaratildi.

Andijon viloyatida ushbu texnologiyaning joriy etilishi tufayli erishilgan natijalar alohida ehtiborga loyiq. Ushbu usuldan to'g'ri foydalangan yuzlab bosh pudratchilar, yuzlab fermer xo'jaliklari yil sayin paxtadan mo'l hosil yetishtirishga muvaffaq bo'lmoqdalar.

Izboskan tumanidagi A.Tillaboev nomli massivda ushbu texnologiya barcha ekin maydonlarida qo'llanib, har yilda 1007 gektar maydonda «Andijon-35» navli chigit qo'shqator sxemada ekilib, hosildorlikni gektar hisobiga 42 tsentnerdan oshirishga erishilmoqda. SHimoliy hudud sanalgan Jalaquduq tumanidagi «Yorqishloq», A.Temur nomli, «Beshtol» massividagi fermer xo'jaliklarida ham bu usul o'zini amalda oqlamoqda.

Paxtabod tumanidagi aksariyat ekin maydonlarida 60x12, 60x15 sxemalarida chigit ekiladi. «O'zbekiston» massividagi A. Siddiqov boshliq fermer xo'jaligining tajriba maydoniga 2005 yil 26 aprelda S-65-24 navli chigit 90(60x30)x12-1 sxemasida ekildi. Ekin qator oralari bor-yo'g'i ikki marta kultivatsiya qilinib, ikki marta suv qo'yildi. Ketidan turli ishlov berishlar o'tkazilmadi. Kuzga borib, bu maydonlardan bir terimdayoq 46 tsentnerdan hosil olindi.

Biroq, keyingi yillarda bir qator fermer xo'jaliklarida ushbu usulning agrotexnik talabalariga qat'iy rioya qilinmaganligi, aksariyat maydonlarga chigit yakka qator sxemada ekilganligi, gerbitsid va stimulyatorlardan foydalanishga yetarli ehtibor berilmaganligi, mutaxassis va oilaviy pudratchilar ishining sifati zarur darajada nazorat qilinmaganligi oqibatida texnologiyani joriy etishda

qo'pol xatolarga yo'l qo'yildi. Bunday xatoliklar texnologiyaga ehtirozlar kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

1 - Bob bo'yicha xulosa

1. Mashinasozlikda chigit ekish uchun seyalkalarning besh xili ishlatilmoqda: birinchisi qator oralarini 60 *sm* qilib chigit ekishga mo'ljallangan CTX-4 markali seyalka; ikkinchisi qator oralarini 90 *sm* qilib chigit ekishga mo'ljallangan CUX-4A markali seyalka. Har ikkala seyalkaning ikki modifikatsiyasi bor; biridan tuksizlantirilgan chigit ekishda va ikkinchisidan tukli chigit ekishda foydalaniladi; uchinchi va to'rtinchilar CXY-4, SMX-4 rusumli seyalkalar bo'lib, ular yuqoridagi birinchi va ikkinchi rusumdagi seyalkalarning takomillashtirilgan variantlaridir; Ular chigitni Plyonka ostiga ekishga mo'ljallanmagan. [2,3,4].

2. Beshinchi chigitni oddiy plyonka ostiga qo'sh qatorlab ekadigan Andijon-2M seyalkasi qatorga birinchi plyonkani yoyib, so'ngra uning ostiga ekish barabanidagi mundshtuklar orqali chigitni ekishga mo'ljallangan. Bunda chigitni kerakli chuqurlikka ekish va ustini tuproq bilan berkitishni ekish barabanidagi mundshtuklar orqali bajarishni iloji yo'q. Ya'ni chigit ekish texnologiyasi o'zgartirilgan. [2,4].

3. Chet elda doimiy ravishda urug' ekishda ishlatiladigan polimer plyonkalar va ularning texnik vositalari takomillashtirilib boriladi. [2].

4. Chigit ekish texnologiyasini o'zgartirmagan holda fotoparchalanuvchan plyonka ostiga chigit ekish texnologiyasi va texnikasi ishlab chiqilmagan.

Hozigi zamonda paxtani fotoparchalanuvchan plyonka ostiga ekish texnologiyasi amalda qo'llanilmaydi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, bir vaqtning o'zida yerga urug' qadab, so'ngra plyonka yopadigan effektiv texnik vositasining yo'qligi, shuning bilan birga tez suratda parchalanadigan plyonkalarni yetishmovchiligi.

Yuqorida ko'rsatilganlarga muvofiq, hozirgi ishlarni asosiy maqsadi paxtani ekishda tez suratda fotoparchalanuvchan plyonka yotqizish uchun texnik vositalarni ishlab chiqarish asoslangan.

II BOB Chigit ekish mashinasining plyonka yotqizish moslamasining konstruksiyasini ishlab chiqish

2.1. Plyonka yopishni texnologik va texnik vositalariga asosiy talablar.


R.I. Buzrukov va Q.Ermatovlarning tadqiqotlaridan va dastlabki natijalaridan kelib chiqib, shunday talablarni ifodalash mumkin:

1. Chigit ekishda ishlatiladigan tez suratda parchalanadigan plyonkalarining qalinligi 30mkm, eni 0.3m va xizmat doirasi 18-20 kun bo'lishi kerak. [2,11].
2. Plyonkani yopish urug'larni qatorlarga ekib bo'lgandan so'ng zudlik bilan yerni namini qochirmay turib yopish lozim. [2,11].
3. Texnologik jarayon vaqtida plyonkalarda uzulish bo'lmasligi lozim.
4. Ishchi organlar plyonka chetlarini tuproq valiklari yordamida berkitayotganda balandligi 0.030:0.035m da quyosh nuri radiatsiyasi ta'siri uchun iloji boricha plyonka ustida maksimal darajada ko'proq ochiq joy qolishi lozim. [2,11].

2.2. Tez suratda parchalanadigan ensiz plyonkalarni bilan qatorlarni yopadigan texnik vositalar sxemalari.

O'zbekistonda plyonkalarni texnik vositasini yaratish bo'yicha quyidagi ishlar olib borilgan:

Dastlab qatorlarni plyonka bilan yopadigan mustaqil agregat tayyorlangan. U seyalkadan so'ng ekilgan qatorlarni plyonka bilan yopib boradi. [2].




2.1 – Rasm. Chigitni plyonka bilan yopish qurilmasining umumiy ko'rinishi.

1-rama ; 2-babina plyonka bilan; 3-plyonka yotqizadigan baraban; 4-prijimli g'ildirak; 5-podveska; 6-qisish mexanizmi; 7-(doirali) sferali disk.

Yopishni boshlashdan oldin g'altak bilan plyonka oxiri baraban ostiga qo'l bilan o'rnatilib, tuproq ostiga qistiriladi. Agregat harakati paytida plyonka uzunasi bo'yicha yopilib, valiklar yordmida plyonka chetlari tuproq bilan

bostirilib boradi. Haydash so'nggida plyonka pichoq bilan traktorning gidroqurilmasiga qo'shilgan gidrosilindr harakati bilan qirqiladi.

Ikkinchi texnik vosita chigit seyalkasida bir vaqtning o'zida ekish va plyonka yotqizish uchun mo'ljallangan.




2.2 – Rasm. Plyonka yopish uchun ikkinchi sxema bo'yicha seyalka moslamasi.
1-seyalka ramasining orqa brusi; 2-egat oluvchi disk; 3-plyonka ruloni, 4-plyonka moslamasi; 5-qisuvchi g'ildirak; 6-zagortachi;

U seyalkaning orqa brusiga prikatka seksiyasi o'miga osiladi. 4 ramkada ishchi organlar chizilishib joylashgan, egatlar ochuvchi disklar 2, qisuvchi parrak 5 va zagortachi 6, plyonka ruloni 3, seyalkaning orqa brusiga mahkamlanadi va dala bo'ylab bemaolol aylanib boradi.

Mana shu sxema bo'yicha plyonka yotqizish quyidagi tartibda bajariladi: disklar orqali plyonkaning ikki chekkasi bo'yicha egatlar ochib boriladi: rulonni bemaolol aylanishi davomida plyonka oson yotqizilib, qisib turuvchi parraklar

plyonka chetlarini egatlarga bostirib, zagortachi orqali plyonka chetlarini tuproq bilan bostirib boradi. [2].

Uchinchi sxema bo'yicha ishlab chiqilgan qurilma quyida ko'rsatilgan



2.3 – Rasm. Uchinchi variant bo'yicha qurilma sxemasi

1-babina plyonka bilan; 2- plyonka; 3-seyalka ramasining orqa brusi; 4-plyonka qisuvchi valik; 5-plyonka yotqizadigan baraban; 6-sferali disk; 7-predohranitel to'siq; 8-moslama ramkasi; 9-pichoq; 10-to'siq qanotlari; 11-ekilgan urug'lar; 12-tuproq valigi; α -disk hujum burchagi; h -disk yo'li chuqurligi; c -plyonka chetlari va disk oralig'idagi masofa; v -agregat harakati yo'nalishi; u_1 -balandlik va u_2 -tuproq valiklari eni. [2].

Sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish va yerdan unumli foydalanishni ko'zlagan holda, oldindan o'tkazilgan tajribalar asosida keyingi ishlab chiqarish uchun, 3- sxema texnik vositasini ishlab chiqarish maqsadga muvofiq deb topildi.


2.3. Moslama parametrlarini nazariy asoslash

Nazariy tadqiqotlar

